

**DIDACTIC OPPORTUNITIES AND RISKS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE  
TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY EDUCATION PROCESS**

**Olimjonova Dilnavoz Maribjon kizi,**  
Master's Student, Andijan State Pedagogical Institute  
Email: [dilnavozkarimova64@gmail.com](mailto:dilnavozkarimova64@gmail.com)

**Gulnoza Teshaboyeva Alimjanovna,**  
PhD, Acting Associate Professor,  
Andijan State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069082>

**SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BOSHLANG'ICH TA'LIM  
JARAYONIDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA XAVFLARI**

**Olimjonova Dilnavoz Maribjon kizi ,**  
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti  
[dilnavozkarimova64@gmail.com](mailto:dilnavozkarimova64@gmail.com)

**Gulnoza Teshaboyeva Alimjanovna,**  
Andijon davlat pedagogika instituti  
PhD, v.b dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rni, didaktik imkoniyatlari va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellektning ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish hamda o'quv materialini interaktiv shaklda taqdim etishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'qish darslarida ertak va hikoyalarni sun'iy intellekt yordamida video formatga keltirish, test va topshiriqlarni avtomatlashtirish orqali o'qituvchining vaqtini tejash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlashning pasayishi va tayyor javoblarga qaramlikning ortishiga olib kelishi mumkinligi asoslangan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligi uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, nutq rivoji, individuallashtirish, didaktika, interaktiv ta'lim, o'qish darsi, raqamli texnologiyalar, mustaqil fikrlash

**Abstract:** This article analyzes the role, didactic possibilities, and challenges of artificial intelligence technologies in primary education. The study highlights the importance of AI in individualizing learning, developing students' speech activity, and presenting educational content in interactive formats. It also examines the use of AI in reading lessons, including transforming stories into video formats and generating automated tasks and tests, which helps save teachers' time. However, excessive use of AI may lead to decreased independent thinking and increased dependence on ready-made answers. The results show that the effectiveness of AI depends on its methodologically appropriate implementation in the educational process.

**Keywords:** artificial intelligence, primary education, speech development, individualization, didactics, interactive learning, digital technologies, independent thinking

## KIRISH

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining mazmuni va metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu texnologiyalarni qo'llash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o'quvchilarning nutqi, tafakkuri va bilish faoliyati shakllanadi. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri ham chuqur tahlil qilinishi zarur. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta'limni individuallashtirish va o'quvchiga yo'naltirilgan holda tashkil etish ustuvor ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, "o'qitish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi" [2, 82-b.]. Bu esa sun'iy intellekt texnologiyalarining adaptiv imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni ta'lim jarayonida qo'llashning ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi bir qator didaktik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, o'quvchilarning tayyor javoblarga ortiqcha tayanishi, mustaqil fikrlash faoliyatining susayishi hamda nutqiy faollikning kamayishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi - mustaqil fikrlovchi va o'z fikrini erkin ifodalay oladigan shaxsni shakllantirish jarayoniga zid keladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev bu borada shunday ta'kidlaydi: "Zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallash - bugungi taraqqiyotning eng muhim omilidir" [1, 56-b.]. Ushbu fikr ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi - sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari va xavflarini tahlil qilish hamda ularni samarali va metodik jihatdan asoslangan holda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy va tafakkuriy rivoji bevosita ularning faol ishtiroki va mustaqil fikr yuritishiga bog'liqdir. Shu jihatdan sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning yangi vositasi sifatida baholanmoqda. Metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish jarayoni faol nutqiy mashqlar orqali amalga oshiriladi. Xususan, "nutqni rivojlantirish o'quvchilarning faol nutqiy mashqlar orqali mustaqil fikr bayon etishiga tayangan holda amalga oshiriladi" [2, 82-bet.]. Ushbu yondashuv sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ham asosiy metodik prinsip sifatida xizmat qilishi lozim.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Xususan, boshlang'ich sinflarda o'qish darslari misolida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari



o'rganildi. Jumladan, ertak va hikoyalarni vizual formatga keltirish, topshiriqlarni differensiallash hamda tezkor qayta aloqa berish jarayonlari metodik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va o'zlashtirish darajasiga ta'siri amaliy kuzatishlar asosida baholandi. Bu esa mazkur texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'quvchilarning bilish faoliyati, nutqiy rivoji hamda umumiy ta'lim samaradorligiga kompleks va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt vositalari oddiy texnik yordamchi sifatida emas, balki o'quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini o'zgartiruvchi, o'qitish jarayonini individuallashtiruvchi va differensiallashtiruvchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, uning samaradorligi bevosita qo'llash metodikasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Avvalo, o'quv materialini multimodal shaklda taqdim etishning ta'siri chuqur tahlil qilindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida abstrakt tafakkur hali to'liq shakllanmaganligi sababli ular matndagi voqealarni mustaqil tasavvur qilishda qiyinchilikka duch keladi. Bu ayniqsa ertak va hikoyalarni o'qish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Matnda berilgan obrazlar, voqealar ketma-ketligi va sabab-oqibat bog'lanishlari o'quvchi uchun yetarli darajada aniq bo'lmaydi. Shu sababli sun'iy intellekt yordamida matnni video, animatsiya yoki audio shaklga keltirish uning qabul qilinishini yengillashtiradi. Masalan, amaliy kuzatuvlar davomida "Bo'ri va echki bolalari" ertagi oddiy matn shaklida o'qitilganda ayrim o'quvchilar voqeani parchalangan holda eslab qolgan bo'lsa, video asosida o'rgatilganda ular voqealar ketma-ketligini to'liq va mantiqiy bog'lanishda ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Bu holat multimodal taqdimotning nafaqat eslab qolishga, balki tushunishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, vizual materiallar orqali o'quvchilar personajlarning xatti-harakatlarini yaxshiroq anglaydi, bu esa ularning tahliliy fikrlashini faollashtiradi. Biroq bu jarayonni bir tomonlama baholash ilmiy jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Kuzatishlar shuni ham ko'rsatdiki, vizual materiallarga ortiqcha tayanish o'quvchilarning mustaqil tasavvur qilish qobiliyatini cheklashi mumkin. Ayrim o'quvchilar video ko'rmasdan turib matnni tushunishga qiynala boshlagan. Bu esa sun'iy intellektidan foydalanishda metodik muvozanat zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli vizual materialdan keyin tahliliy savollar berish muhim hisoblanadi. Masalan: "Nima uchun qahramon shunday yo'l tutdi?", "Agar voqea boshqacha yakunlanganida nima bo'lardi?", "Siz qahramon o'rnida nima qilardingiz?" kabi savollar o'quvchini faol fikrlashga undaydi. Natijada u faqat tayyor obrazni qabul qilmaydi, balki uni qayta ishlaydi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalarining topshiriqlarni differensiallash imkoniyati ham alohida tahlil qilindi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim darajasi, nutqiy rivoji va fikrlash tezligi jihatidan keskin farq qiladi. An'anaviy ta'limda esa ko'pincha bir xil topshiriq barcha o'quvchilarga beriladi. Bu esa kuchli o'quvchilar uchun motivatsiyaning pasayishiga, sust o'quvchilar uchun esa qiyinchiliklarning ortishiga olib keladi. Sun'iy intellekt yordamida esa bitta matn asosida turli murakkablik darajasidagi topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Masalan, bir o'quvchi voqeani qayta hikoya qiladi, boshqasi sababini tahlil qiladi, yana biri esa qahramonlarga baho beradi yoki muqobil yakun yaratadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Bu

jarayon ilmiy jihatdan quyidagicha asoslanadi: “o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi” [2, 45-bet]. Shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarining tezkor qayta aloqa berish imkoniyati ham muhim natija sifatida aniqlandi. An‘anaviy darsda o‘qituvchi barcha o‘quvchilarning javobini chuqur tahlil qilishga ulgurmaydi. Natijada ayrim xatolar e‘tibordan chetda qoladi. Sun‘iy intellekt esa o‘quvchi javobini darhol tekshirib, xatoni aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Bu o‘quvchining o‘z ustida ishlashini kuchaytiradi. Masalan, o‘quvchi savolga noto‘g‘ri javob berganda tizim darhol xatoni ko‘rsatadi va yo‘naltiruvchi izoh beradi. Bu esa o‘quvchining o‘rganish jarayonini tezlashtiradi. Biroq bu yerda ham muhim cheklov mavjud: agar o‘quvchi tayyor javobni darhol olsa, u mustaqil fikrlashga kamroq harakat qiladi. Shu sababli feedbackni bosqichma-bosqich berish, ya‘ni avval yo‘naltiruvchi savol, keyin to‘liq javob shaklida tashkil etish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida sun‘iy intellektning o‘quvchilarning nutqiy rivojiga ta‘siri ham chuqur tahlil qilindi. Boshlang‘ich ta‘limda keng tarqalgan muammolardan biri - o‘quvchilarning passiv lug‘ati keng bo‘lishiga qaramay, faol nutqining sust rivojlanganligidir. Sun‘iy intellekt yordamida tashkil etilgan topshiriqlar esa o‘quvchini faol nutqiy jarayonga jalb qiladi. Masalan, “hikoyani davom ettir”, “qahramon nomidan gapir”, “voqeaga baho ber” kabi topshiriqlar o‘quvchini mustaqil fikr bildirishga majbur qiladi. Bu esa uning nutqiy faolligini oshiradi va leksik kompetensiyasini rivojlantiradi. Ilmiy manbalarda ham bu jarayon quyidagicha asoslanadi: “o‘quvchining nutqi uning mustaqil fikr yuritishi va o‘z fikrini erkin ifodalashi jarayonida rivojlanadi” [3, 98-bet]. Shu bilan birga, tadqiqot sun‘iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq muammolarni ham ko‘rsatdi. Eng asosiy xavf - o‘quvchilarda tayyor javoblarga tayanish odatining shakllanishidir. Agar o‘quvchi har bir savolga tezkor javob olishga o‘rganib qolsa, u fikrlash jarayonini qisqartiradi. Bu esa uning tafakkur rivojiga salbiy ta‘sir qiladi. Bundan tashqari, texnologiyaga ortiqcha tayanish o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini ham susaytirishi mumkin. Ayrim hollarda o‘quvchilar topshiriqni mustaqil bajarish o‘rniga darhol texnologiyaga murojaat qilishga harakat qilishi kuzatildi. Bu esa ularning irodaviy sifatleri, sabr-toqati va muammoni mustaqil hal qilish qobiliyatining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellekt texnologiyalari boshlang‘ich ta‘lim jarayonida katta didaktik salohiyatga ega. Biroq uning samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki uni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. To‘g‘ri yondashuvda u o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, nutqini rivojlantiradi va ta‘lim samaradorligini oshiradi. Noto‘g‘ri yondashuvda esa aksincha - fikrlashning pasayishi, nutqiy sustlik va texnologiyaga qaramlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida sun‘iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi kichik hajmdagi amaliy kuzatuvlar asosida ham tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida multimodal (matn va video uyg‘unligi) asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning matnni anglash darajasi an‘anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Xususan, o‘quvchilar voqealar ketma-ketligini aniqroq ifodalashga, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuntirishga hamda matn mazmunini yaxlit tarzda qayta bayon qilishga ko‘proq muvaffaq bo‘ldilar. Shuningdek, differensial topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning umumiy faolligi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, ilgari sust ishtirok etgan o‘quvchilarning ham dars jarayoniga jalb etilishi kuchaydi. Bu esa individual yondashuvning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarda ham ijobiy siljishlar kuzatildi. O'quvchilar yangi o'rganilgan so'zlarni mustaqil nutqda qo'llashga intila boshladi, bu esa passiv lug'atning faol lug'atga aylanish jarayoni tezlashganini ko'rsatadi. Biroq kuzatishlar shuni ham ko'rsatdiki, sun'iy intellektdan nazoratsiz foydalanish ayrim o'quvchilarda tayyor javoblarga tayanish tendensiyasini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli texnologiyadan foydalanish qat'iy metodik nazorat ostida bo'lishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, sun'iy intellekt yordamida o'quv materialini multimodal shaklda taqdim etish o'quvchilarning matnni anglash jarayonini chuqurlashtiradi, abstrakt tushunchalarni obrazli qabul qilishga yordam beradi hamda ularning bilish faoliyatini faollashtiradi. Bu esa ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim bo'lgan tasavvur, mantiqiy bog'lanish va sabab-oqibat munosabatlarini anglash jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan topshiriqlarni differensiallash imkoniyati o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos darajada faoliyat olib boradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, turli darajadagi topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil fikr bildirishga jalb etish hamda faol lug'atini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun'iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim afzalligi - tezkor qayta aloqa (feedback) berish imkoniyatidir. Bu o'quvchilarning xatolarini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda bilimlarni mustahkamlash jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi uchun vaqtni tejash imkonini yaratib, uni metodik faoliyatga ko'proq e'tibor qaratishga yo'naltiradi. Biroq tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan noto'g'ri foydalanish qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham ko'rsatdi. Xususan, tayyor javoblarga ortiqcha tayanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatining pasayishiga, nutqiy faollikning susayishiga hamda texnologiyaga qaramlikning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi - mustaqil fikrlaydigan va o'z fikrini erkin ifodalay oladigan shaxsni shakllantirish jarayoniga zid keladi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda asosiy e'tibor uning texnik imkoniyatlariga emas, balki metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga qaratilishi lozim. Ya'ni sun'iy intellekt yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi, o'qituvchi esa ta'lim jarayonining boshqaruvchisi sifatida yetakchi rolni saqlab qolishi zarur. Har bir topshiriq o'quvchini tayyor javob olishga emas, balki fikrlashga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va metodik asoslangan holda foydalanish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ta'lim samaradorligini oshiradi hamda zamonaviy, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
3. Xalilova R.R. Ona tili o'qitish metodikasi. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.



4. Rasulov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Tursunov U. Ta’limda innovatsion yondashuvlar va metodlar. – Toshkent: O’qituvchi, 2020.